## 60112200-Jismoniy madaniyat
## bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

60112200-Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 3 yil.

60112200-Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi - pedagogika sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar, texnikumlar uchun bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha pedagogik kadr jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish;

ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

## Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- ta’lim jarayoni; o‘qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;
- ta’limning nazariy masalalari; o‘qitish metodikasi;
- loyihalashtirish asosida o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari ta’lim-tarbiya jarayoni; ta’lim sohasidagi muammolar va ularning echimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta’limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;
- mos ixtisoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari jarayoni;